

**AYRIM TURDAGI BITIMLARNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Ubaydullayev Doston Akbar o'g'li  
Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bitim tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, bitim shakllari hamda ularning huquqiy oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bitimlarda keltirilgan huquq va majburiyatlar, ularni amalga oshirish tartibi hamda kafolatlari xususida to'xtalib o'tilgan. Bitim shakllari hamda bitimlarning tegishli shakliga rioya qilmaslik qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi xususidagi huquq normalari amaliy misollar yordamida sharhlab berilgan.

Kalit so'zlar: bitim, shartnoma, bitim shakllari, nizoli bitimlar, real bitimlar, konsensual bitimlar, ishonchnoma

**KIRISH.** Fuqarolik huquqida bitimlar eng asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Zero huquq sohasida vujudga kelayotgan har bir huquqiy munosabatlar bitimlar vositasida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, bitim tushunchasini o'rganish nafaqat huquqshunoslar, balki huqushunos bo'lish istagidagi talabalar, oddiy aholi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, negaki bitim jamiyatimizda shu kecha-yu kunduzda eng ko'p sodir bo'layotgan yuridik faktlardan biridir. Har bir fuqaro ertalab uyg'onidan boshlab toki kechqurun uxlagoniga qadar yo yangi bitim tuzadi, yo avval tuzilgan bitim ta'sirida bo'ladi. Jamiyatimiz hayotida har kuni juda ko'plab bitimlar tuziladi, ammo ko'pchilik bitim ishtirokchilari (ayniqsa jismoniy shaxslar) o'z xatti-harakatlarining bitim ekanligini hamda uning huquqiy oqibatini anglab yetmaydilar, oqibatda agar taraflardan biri o'z majburiyatini umuman yoki lozim darajada bajarmaydigan bo'lsa, ikkinchi taraf o'zining buzilgan huquqlarini tiklashda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu xususda keying o'rirlarda to'xtalib o'tamiz. Umuman olib aytganda bitimlar bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy normalarni yaxshi bilish shaxsning kundalik hayotda duch keladigan ko'plab muammolariga yechim berishi mumkin.

**MUHOKAMA.** Fuqarolik kodeksining 101-moddasiga ko'ra[1], bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytildi. Ya'ni mazkur ta'rifdan kelib chiqadiki, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bitim tuzish orqali quyidagi xatti-harakatlardan birini amalga oshiradilar:

1. O'zları uchun yangi huquqlar yaratadilar;
2. O'zları uchun yangi majburiyatlar yaratadilar;
3. Fuqarolik huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqi o'zgaradi;
4. Avval mavjud bo'lgan fuqarolik huquqlari bekor bo'ladi.

Shunday bitimlar borki, unda yuqorida keltirilgan holatlarning barchasi yuz beradi.

Masalan, oldi-sotdi shartnomasini olaylik. Ushbu turdag'i bitim bo'yicha taraflar sifatida sotuvchi va xaridor ishtirok etadi. Mazkur shartnomaga tuzilganda taraflarda quyidagi huquq va majburiyatlar vujudga keladi:

5. Sotuvchida mahsulot haqini olish huquqi vujudga keladi;
6. Xaridorda mahsulotga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi;
7. Sotuvchida mahsulotni topshirish majburiyati vujudga keladi;
8. Xaridorda mahsulot haqini topshirish majburiyati vujudga keladi;
9. Sotuvchida mahsulotga nisbatan mulk huquqi bekor bo'ladi;
10. Xaridorda mahsulot haqiga nisbatan mulk huquqi bekor bo'ladi;
11. Mahsulotga nisbatan mulk huquqi o'zgaradi, ya'ni mulk huquqi sotuvchidan xaridorga o'tadi;
12. Mahsulot haqiga nisbatan mulk huquqi o'zgaradi, ya'ni mulk huquqi xaridordan sotuvchiga o'tadi.

Bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishda eng muhim qoidalardan biri –

bu bitimning shakliga doir qoidalardir. Negaki, aynan bitimlarning shakllari bitimning yuridik kuchga ega bo'lish vaqtini belgilaydi. Kundalik hayotda uchraydigan muammolarning aksariyati bitimlarning tegishli shakliga riosa qilmaslik oqibatida kelib chiqadigan muammolardir. Mazkur muammolarga e'tibor qaratishdan oldin bitim qanday shakllarda tuzilishi xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Demak bitim quyidagi shakllarda tuzilishi mumkin:

13. Og'zaki shaklda;
14. Yozma shaklda.

Fuqarolik qonunchiligi muayyan turdag'i bitimlarni og'zaki shaklda tuzishga ruxsat beradi. Fuqarolik kodeksining 106-moddasiga ko'ra, u tuzilayotgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan bitim og'zaki shaklda tuzilishi mumkin. Shunigdek, jeton, patta yoki odatda qabul qilingan boshqa belgi berish yo'li bilan tuzilgan bitim ham agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, og'zaki shaklda tuzilgan hisoblanadi. Bizningcha, qonunchilik quyidagi holatlarni hisobga olgan holda ba'zi turdag'i bitimlarni og'zaki shaklda tuzishga ruxsat bergen:

15. Agar taraflarning ikkalasi ham jismoniy shaxs bo'lganda;
16. Shartnomalar predmetining qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha bo'lgan summada bo'lganida.

Umuman olganda, bitimlarni og'zaki shaklda tuzish agar ushbu bitim yuzasidan nizo chiqqan taqdirda agar taraflar bu xususida kelishuvga erisha olmasalar, sudga murojaat qilish bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi, negaki Fuqarolik protsessual kodeksining 189-190-191-moddalariga ko'ra [2], sudga ariza berayotgan shaxs arizada keltirilgan holatlarni tasdiqllovchi hujjatlarni arizaga ilova

qilishi lozim. Agar mazkur hujjatlar ilova qilinmaydigan bo'lsa, Kodeksning 195-moddasiga muvofiq, arizaning qaytarilishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, "Davlat boji to'g'risida" gi qonunga [3] 1-ilova tarzida qabul qilingan Davlat boji stavkalarining 1-bandiga ko'ra, fuqarolik sudlariga berilgan

mulkiy xususiyatga ega da'vo arizalaridan da'vo bahosining 4 (to'rt) foizi miqdorida davlat boji undiriladi. Agar da'vo bahosining 4 foizi BHM (bazaviy hisoblash miqdori) ning bir baravaridan kam bo'lsa, BHM ning bir barvari miqdorida davlat boji undiriladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qonunchilik ruxsat bergen asoslar bo'yicha agar taraflar og'zaki bitim tuzadigan bo'lsalar hamda mazkur bitim yuzasidan nizo kelib chiqadigan bo'lsa, aksariyat jismoniy shaxslar sudga murojaat qilishdan ko'ra, kelishuv yo'lini tanlashni afzal bilishadi. Negaki, ular tuzgan bitim ijtimoiy ahamiyati jihatidan unchalik yuqori bo'limganligi uchun ular sudda vaqt ketganidan ko'ra o'sha vaqtda talab qilayotgan summadan ko'proq daromad topaman deb hisoblashadi. Agar misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, bozordan sotib olgan kartoshka aynigan chiqsa hamda sotuvchi uni qaytarib olishdan yoki almashtirishdan bosh tortsa, xaridor kartoshka sotuvchisining ustidan sudga murojaat qilmaydi, chunki xaridor bitim summasining kamligi tufayli sudga murojaat qilmaydi. Shuning uchun qonunchilik yuz berishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olib, bunday turdag'i bitimlarni og'zaki shaklda tuzishga ruxsat bergen.

Bitimlarni yozma shaklda tuzish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, Fuqarolik huquqida yozma shaklda tuziladigan bitimlar ham bir necha turlarga bo'linadi. Ular quyidagilar:

17. Oddiy yozma shaklda tuziladigan bitimlar;
18. Notarial tasdiqlanadigan bitimlar;
19. Davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan bitimlar;
20. Notarial tasdiqlanadigan va davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan bitimlar;
21. Elektron bitimlar.

Fuqarolik kodeksining 107 - 108 - moddalariga ko'ra, qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri nazarda turilgan bitimlar, taraflardan biri yuridik shaxs bo'lgan bitimlar hamda bitim summasi BHM ning 10 (o'n) baravaridan oshiq summadagi bitimlar oddiy yozma shaklda tuziladi. "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonunning 21-moddasiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi yozma shaklda tuzilishidan tashqari unda yuridik xizmat xodimi yoki jalb etilgan advokatning imzosi ham bo'lishi kerak.

Kodeksning 110-moddasiga ko'ra esa, qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan holatlarda hamda agar taraflardan biri talab qilsa, bitim notarial tasdiqlanadi.

Fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan hollarda, ayrim turdag'i bitimlar davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Elektron bitimlar aslida boshqacha usul bilan tuzilsa-da, ammo qonunchilik uni yozma bitimga tenglashtiradi.

Fuqarolik kodeksining 109 hamda 112-moddasiga ko‘ra, bitimlarning tegishli shakliga rioya qilmaslik qonunda to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilgan hollarda bitimlarning haqiqiy emasligiga sabab bo‘ladi.

**NATIJALAR.** Qonunchilik fuqarolik huquqiy munosabatlarni amalga oshirish tartibini boshidan oxirigacha imkon qadar belgilab bersa-da, kundalik hayotda bitimlarni tuzish bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Fuqarolik huquqida qonun analogiyasiga ruxsat berilganligi sababli, mazkur huquq sohasida huquqiy bo‘shliq boshqa huquq sohalariga qaraganda kam uchraydi. Shuning uchun sudga murojaat qilganda agar da’vo arizasida keltirilgan talablarni asoslovchi dalillar taqdim etilgan bo‘lsa, sud da’vogarning foydasiga hal qiluv qarori chiqarib berishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da ayrim turdag'i nizolar borki, ushbu holatlarda ko‘plab fuqarolarning huquqlari buzilgan bo‘lsa-da, ammo sud ularning huquqlarini tiklab bera olmaslik holatlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Misol tariqasida olib qaraydigan bo‘lsak, eng ko‘p uchraydigan holatlardan biri bir taraf ikkinchi tarafga katta miqdorda qarz beradi (albatta BHM ning o‘n baravaridan ortiq) lekin qarz bergenligini rasmiylashtirish uchun hech qanday yozma dalil unda bo‘lmaydi. Qarzni qaytarish muddati xususidagi shartlar hamda boshqa shartlar og‘zaki kelishiladi. Oqibatda, agar ikkinchi taraf o‘z majburiyatini lozim darajada bajarmaydigan bo‘lsa yoki umuman bajarmaydigan bo‘lsa, qarz beruvchida buzilgan huquqini tiklash hamda zararni undirishda katta to‘singga duch keladi. Qonunchilik ushbu holatda sudga murojaat qilinishini kafolatlaydi, lekin yuqorida keltirilganidek, sud agar da’vo arizasida keltirilgan talablarni isbotlovchi dalillar taqdim etilmasa, da’vo arizasini qaytaradi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu holatda qarz beruvchi o‘z huquqini tiklash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bu holat hozirgi kunda jamiyatimizda eng ko‘p uchraydigan hodisalardan biri hisoblanadi.

Yana bir holatni misol qilib keltiradigan bo‘lsak, ikki taraf o‘rtasida uy-joy oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Mazkur turdag'i shartnomasi Fuqarolik kodeksining 111-moddasiga ko‘ra, ushbu turdag'i bitimlar davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan bitimlar hisoblanadi. Ammo haqiqatda bir taraf ikkinchi tarafga faqat uyning pulini kelishganidek to‘lab beradi, ammo haqiqiy ma’nodagi uy-joy oldi-sotdi shartnomasi tuzishni keying qoldiradi. Bu holatda uyni sotib olgan shaxsning keyingi taqdiri xavf ostida qoladi, chunki uyning pulini to‘lagan bo‘lsa-da, uyga bo‘lgan mulk huquqi hali hamon sotuvchida turibdi. Ya’ni bu holatdan ko‘rinadiki, sotuvchi xohlagan vaqtida xaridorni uydan chiqarib yuborishi, agar chiqishni rad etsa, bu ishni sud tartibida amalga oshirishi mumkin. Xaridorda esa o‘zini himoya qilish uchun hech qanday vosita qolmaydi, chunki uy-joy oldi-sotdi shartnomasini tegishli shaklda rasmiylashtirmagan.

Yana bir holatni misol qilib keltiradigan bo‘lsak, chakana oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha agar bir supermarketlardan yoki kiyim do‘konlaridan kiyim xarid qilsak, bizga tovar cheki yoki kassa cheki berishadi. Ushbu chek shartnomaning yozma shaklda tuzilganligini isbotlaydi. Ammo ko‘pchilik shaxslar mazkur chekni saqlab qo‘ymaydilar. Oqibatda agar supermarketdan xarid qilgan tovarlari sifatsiz bo‘lsa yoki kiyim do‘kondan sotib olgan kiyimda kamchilik bo‘lsa, ular mazkur mahsulotni boshqa mahsulotga almashtirib olishda muammoga duch keladilar, neganki ular xarid qilgan do‘kon ma’muriyati avvalo ulardan “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi qonunga ko‘ra, tovar cheki yoki kassa chekini talab qiladi. Agar xarid chekini ko‘rsata olmasalar, supermarket yoki do‘kon ma’muriyati nuqsonli mahsulotni qaytarib olishni rad etadi. Bu holatda ayrim fuqarolar tomonidan janjal - to‘polon qilish holatlarining

sodir qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat albatta qonunni bilmaslik natijasida kelib chiqadi.

Demak, ushbu holatdan quyidagicha xulosalar kelib chiqadi:

22. Bitim tuzayotganda uning tegishli shakliga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy hisoblanmasligiga sabab bo‘ladi;
23. Agar yozma shaklda tuzilishi lozim bo‘lgan bitim yozma shaklda tuzilmagan bo‘lsa, mazkur bitim yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda manfaatdor shaxs o‘z huquqini sud tartibida tiklash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi;
24. Hozirgi paytda kundalik hayotda ko‘plab uchrayotgan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgangandagina tuzilgan hisoblanadi, qolgan holatlarda taraflar uchun hech qanday huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi, ya’ni tuzilmagan hisoblanadi;
25. Chakana oldi - sotdi shartnomalarida bitim taraflarining majburiyati qonunchilik bilan belgilangan bo‘lsa-da, mahsulot sifati bilan bog‘liq muammo chiqqan taqdirda xaridor o‘z huquqlaridan foydalanishi uchun tovar cheki yoki kassa chekini sotuvchiga ko‘rsatishi talab etiladi.

**XULOSA.** Hozirgi kunda jamiyatimizda tuziladigan bitimlarning aksariyati jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ular bitim tuzayotganda biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan qoidalarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir. Bu holatlarning yuz berishiga sabab bo‘ladigan omillar ham bor. Ulardan biri – o‘zbekchilik degan stereotipdir. Ya’ni qarz oldi-berdi munosabatlarda shartnomaning yozma shakliga rioya qilish bir biriga ishonmaslikni keltirib chiqaradi degan qarash mavjud. Ammo qonun har qanday urf-odatdan ustun turadi. Aynan fuqarolarning qonunga rioya qilmaganliklari o‘zlari uchun yomon oqibatlarni keltirib chiqarishini yuqoridagi misollar yordamida bilib oldik.

**References:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son);
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son);
3. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boji to‘g‘risida” gi Qonuni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.09.2023-y., 03/23/866/0683-son);
4. O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchi huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2023-y., 03/23/819/0113-son);
5. O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi Qonuni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)